

**YUQORI SINIF O'QUVCHILARNING MULOQOT
KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK MAHORATNING O'RNI**

Karimova Mohigul
Qo'qon DPI magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yuqori sinf o'quvchilarning muloqot kompetentligini shakllantirish tizimini takomillashtirishda pedagogik mahoratning o'rni hususida so'z boradi. Shuningdek maqolada, pedagogik mahorat tushunchasi, yuqori sinf o'quvchilarning muloqot kompetentligini shakllantirishda pedagogik qobiliyat hususida ham ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Muloqot kompetentligi, pedagogik mahorat, ishonitirish, ongga ta'sir etish, rivojlantirish, munosabat o'rnatish.

**РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ В
СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ СИСТЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ
КОММУНИКАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
СТАРШКОЛНИКОВ**

Каримова Мохигул
Магистрант Кокан ГПИ

Абстрактный. В данной статье говорится о роли педагогического мастерства в совершенствовании системы формирования коммуникативной компетентности старшеклассников. Также в статье содержатся некоторые комментарии к понятию педагогическое мастерство, педагогические умения в формировании коммуникативной компетентности старшеклассников.

Ключевые слова. Коммуникативная компетентность, педагогические навыки, убеждение, влияние на сознание, развитие, формирование отношения.

**THE ROLE OF PEDAGOGICAL SKILLS IN IMPROVING THE
SYSTEM OF FORMING COMMUNICATION COMPETENCE OF**

HIGHER-GRADE STUDENTS

Karimova Mohigul

Master's student of Kokand State Pedagogical Institute

Annotation. This article discusses the role of pedagogical skills in improving the system of forming communication competence of higher-grade students. The article also presents some thoughts on the concept of pedagogical skills, pedagogical abilities in the formation of communication competence of higher-grade students.

Keywords. Communication competence, pedagogical skills, persuasion, influencing consciousness, development, establishing relationships.

Ma'lumki, insoniyat tammadunidan to bugungi kunga qadar har bir shaxsning rivojlansishi va kamol topishi bevosita uning ta'lim olishiga bog'liq bo'lib kelgan. Bu jarayonda esa ustoz va murabbiylarning ro'li muhim omil bo'lib hizmat qiladi. Pedagogning mahorati va ta'lim berish qobiliyati ta'lim oluvchilarning jarayonga qiziqishlariga va samarali o'zlashtirishlariga turtki bo'ladi. Biz tomonimizda tadqiq etilayotgan yuqori sinf o'quvchilarning muloqot kompetentligini shakllantirish tizimini takomillashtirishda albatta pedagogning mahorat ham muhim omil hisoblanadi.

Pedagogik mahorat tushunchasi turli manbalarda turlicha sharxlangan bo'lsada, mazmun-mohiyati bir ma'noni anglatadi. Jumladan, "Pedagogik ensiklopediya"da "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis"¹ deb ta'rif beriladi. Shuningdek, mualliflar tomonidan ham pedagogik mahorat tushunchasi sharxlab o'tilgan: "yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati"², "shaxsning pedagogik sifatlari majmui va o'qituvchi tomonidan kasbiy pedagogik faoliyatni mustaqil ravishda samarali tashkil etishni ta'minlash

¹ Pedagogik ensiklopediya. R.G.Safarova tahriri ostida. II tom. Toshkent.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti. 2015, B-176.

² Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent.: "Iqtisod-moliya", 2011. B-22

bo'lib, u pedagogning faoliyat mohirligini eng yuqori cho'qqisiga erishganligini bildiradi"³, "yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi".⁴

Ushbu ta'riflarning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi.

2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.

3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.

4. O'quv – tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

A.Xoliqov pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi.

2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.

3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.

4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.⁵

Yuqori sinf o'quvchilarning muloqot kompetentligini shakllantirishda pedagogning mahorati muhim hisoblanib, o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiyaviy jarayonda ijobiy aloqalar o'rnatish, ijobiy iqlim yarata olish, o'ziga ishontira olish va jalb qilish – o'qituvchi pedagogik mahoratining asosiy mohiyati bo'lib, bunda bevosita o'qituvchi bilan bog'liq bo'lgan minglarcha ruhiy jarayonlar, ma'lum bir qolipdan chiqishi mumkin bo'lmagan muomala turlari va shartlari mavjud. Tarbiyaning samaradorligi, pirovard natijada o'quvchilar bilan aloqa o'rnatishning shakl va uslublariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Asosiy maqsad, o'qituvchi va o'quvchi munosabatida majburiy itoatkorlik o'rnini

³ Abdurahmonov F., Davletshin M. Odamlar bilan qanday muloqotga kirishish va yondashish kerak. T.: 1996

⁴ Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. -T.: Nizomiy nomli TDPU. 2005

⁵ Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. Toshkent.: "Iqtisod-moliya", 2011. B-12.

ongli intizom egallashi, o'quvchilarda kommunikativ kompetentlikni hosil qilishdan iborat. O'qituvchi tarbiya usullari tizimini belgilab olgandan keyin bir qator aloqa o'rnatish vazifalarini rejalashtirishi kerak. Albatta, bu nihoyatda qiyin jarayon, zero tarbiyaning har bir usuli, tarkibiy qismi va tashkil etuvchi usullari muomala orqali aloqa o'rnatishning samaradorligiga bog'liq. Ushbu jarayon bevosita o'qituvchining fikr almashuvi (refleksiya) bilan bog'liq xususiyatlariga, o'quvchi ruhiy holatini fikr tezligi bilan uqib olish san'atiga va pedagogik ta'sir ko'rsatishning turli usullarini bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikda qo'llay bilishiga taalluqli bo'lib, ular uzluksiz shakllanadi.

O'qituvchi pedagogik faoliyatida yuqori sinf o'quvchilarida kommunikativ qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy xususiyatlari ular ongiga qaratilgan faoliyat bo'lib, nihoyatda murakkab jarayonda takomillashadi. O'zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog'liq bo'lgan kommunikativ qobiliyatning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

- o'quvchilarni ishontirish;
- o'quvchilar ongiga ta'sir etish;
- o'zgalarga taqlid qilish.

O'quvchilarni ishontirish o'quvchining ongiga qaratilgan bo'lib, o'qituvchi fikr-mulohazalarini ta'sirchan nutq orqali o'quvchining bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, xatti-harakatiga ta'sir etadi va uni qisman o'zgartiradi.⁶ Ishontirish o'qituvchining kasb faoliyatiga taalluqli bo'lgan murakkab faoliyatida asosiy ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida ishlatiladigan usullardan biri hisoblanadi. O'quvchi ongiga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan ishontirish usuli o'qituvchidan bahs, munozara asosida dalillar keltirishni, isbot va mantiqqa tayanishni talab qiladi. Ayniqsa o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida o'rganilayotgan mavzuga taalluqli muqobilik mavjud bo'lganda, tanqid va fikrlar kurashiga tayanilganda samarali bo'ladi.

Ishontirish yuqori sinf o'quvchilarining ongiga qaratilgan ekan, o'qituvchining his-tuyg'usi, nutqi va ishontira olish san'ati bunda muhim aha-

⁶ Куронов М. Болам бахтли бўлсин, десангиз (Ота-оналар учун). – Т.: «Маънавият», 2013. – 320 б.

miyatga ega. U pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli sifatida darslarda yangi mavzuni tushuntirishda, o'quv-tarbiyaviy soatlarda, turli uchrashuvlar va ijodiy suhbatlarda munozaralar shaklida qo'llaniladi. Tarbiyaviy tadbirlarda ishontirish usuli sinf jamoasi bilan hamda alohida o'quvchi bilan individual suhbatlar o'tkazish, siyosiy mavzulardagi darslarda keng qo'llaniladi. Ishontirish usuli yordamida o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlari takomillashtiriladi. Bu ayniqsa yuqori sinf o'quvchisi ongini begona mafkuraviy g'oyalardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega, ishontirish asosida o'quvchilarga ideal va mustaqil fikrlar qayta quriladi, ularni ba'zi psixik ta'sirlar tufayli sodir bo'ladigan tushkunlik holatidan asraydi, ularda erkinlikni hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stiradi, o'ziga va kelajagiga ishonch uyg'otadi, o'z-o'zini tarbiyalashda, mustahkam irodani shakllantirishga undaydi.

O'quvchilar ongiga ta'sir o'zaro fikr almashish jarayonida shakllanadigan murakkab psixologik xususiyat bo'lib, o'quvchilarda kommunikativ qobiliyatni shakllantirishning universal omili hisoblanadi.⁷ O'qituvchilarning o'zaro suhbat va faoliyati jarayonida yuqori sinf o'quvchilari ongiga ta'sir etishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u o'quvchilarning psixikasi va xulq-atvoriga sezilarsiz ravishda ta'sir ko'rsatadi. Ta'sir o'quvchilar ongiga, psixikasiga nazoratsiz kirib borishi bilan alohida ahamiyatga ega, o'quvchilarning ijodiy faoliyatida, xatti-harakatlarida, intilishlarida yo'l-yo'riqlar ko'rsatish tarzida amalga oshiriladi. Bu esa ularda kommunikativ kompetentlikni shakllantirishga hizmat qiladi.

Ongga ta'sir – shunday bir psixik jarayonki, o'quvchilar o'qituvchining yoki biror shaxsning ta'siri ostida, o'z ongining yetarli nazoratisiz voqelikni idrok etadi.⁸ Agar o'qituvchi bunda pedagogik mahoratga, psixologik tajriba va bilimlarga ega bo'lmasa, o'quvchilar ongiga ta'sir qila olmaydi, natijada ko'zlangan kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish jarayoni ijobiy natijalar bermaydi, o'qituvchi o'quvchilarning hurmat-e'tiboriga sazovor bo'la olmaydi. O'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilari ongini tashqi muhitning salbiy ta'sirlaridan, sinf

⁷ Қуронон М. Болам бахтли бўлсин, десангиз (Ота-оналар учун). – Т.: «Маънавият», 2013. – 321 б

⁸ Ғозиев Э. Психология: (Ёш даврлари психологияси): Пед. ин-тлари ва ун-тларнинг талабалари учун ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1994, 224 б.

jamoasi norasmiy yetakchilarining turli yashirin buzg'unchi g'oyalardan himoya qilishga mas'ul shaxsdir. O'quvchi ongiga ta'sir o'tkazishda o'qituvchi yetakchilikni o'z qo'liga kiritishi uchun:

— o'quvchilarning salbiy xatti-harakatlari tufayli sodir bo'ladigan emotsional his-tuyg'ularga berilmasligi;

— har bir o'quvchining psixologik va ruhiy holatini puxta o'rganmasdan uning ongiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga harakat qilmasligi;

— har bir o'quvchiga alohida shaxs sifatida hurmat e'tibor bilan munosabatda bo'lishi;

— sinf jamoasining norasmiy yetakchisini sezdirmasdan aniqlab olishi va uning hatti-harakatidan doimo ogoh bo'lishi;

— pedagogik mahoratning muhim jihatlarini uzluksiz o'zida takomillashtirib borishi;

— o'ylanmay aytilgan har bir so'z, noo'rin fikr-mulohazaning oqibatini hech qachon tuzatib bo'lmamligini o'qituvchi doimo his etishi lozim.⁹

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda axborot texnologiyalari maydonining nihoyatda kengligi tufayli o'quvchilar ongi tarbiyaga salbiy ta'sir o'tkazuvchi g'oya va mafkuralar bilan band bo'lishi tabiiy hol. O'qituvchilar yosh avlodni tarbiyalashda ongga ta'sir qilishning keng imkoniyatlarini o'z o'rnida qo'llay olsalar, o'quvchilar ongini turli keraksiz g'oyalar va mafkuralardan himoya qila oladilar. Shuni unutmamlilik kerakki, o'quvchilar o'zlarining yosh xususiyatlari va psixologik ta'sirga moyilligi tufayli har qanday ta'sirga nihoyatda beriluvchan bo'ladilar.

⁹ Ғозиев Э. Психология: (Ёш даврлари психологияси): Пед. ин-тлари ва ун-тларнинг талабалари учун ўқув қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1994, 224 б.